



PSIXOLINGVISTIKA. ERKIN A'ZAMING "ANOYINING JAYDARI OLMASI" HIKOYASINING PSIXOLINGVISTIK TAHLIL MASALASI.

Shakarova Dilrabo Rustamovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs Magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir obektning bugungi fan uchun muayyan strukturaga ega ekanligi isbot talab etilmaydigan haqiqat. Bu tadqiq o'zbek tilshunosligida ham muayyan ahamiyatga ega. Maqolada Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi Ramazon shaxsinimg (obrazining) terov jarayonidagi so'zlagan nutqini psixolingvistik tahlili ochib berililadi. Psixolingvistikaning yoritishda o'zbek tili va rus tilidagi ilmiy manbalardan foydalanib psixolingvistikaning xususiyati hikoyada keltirilgan misollar orqali yoritilishiga harakat qilingan.*

Аннотация: *В данной статье приводится недоказанный для современной науки факт, что каждый объект имеет определенную структуру. Это исследование имеет особое значение и в узбекском языкознании. В статье раскрывается психолингвистический анализ речи Эркина Азама в процессе поиска образа Рамадана в рассказе «Анойи джайдари алмаси». В освещении психолингвистики с использованием научных источников на узбекском и русском языках через примеры, приведенные в рассказе, были выделены особенности психолингвистики.*

Abstract: *In this article, it is an unproven fact that every object has a certain structure for today's science. This research is also of particular importance in Uzbek linguistics. The article reveals the psycholinguistic analysis of Erkin Azam's speech in the search process of the character of Ramadan in the story "Anoyi's jaidari almasi". In the coverage of psycholinguistics, using scientific sources in Uzbek and Russian languages, the characteristics of psycholinguistics were highlighted through the examples given in the story.*

Kalit so'zlar: *Leksik birlik, semantika, blingvizm tushunchasi, til, nutqiy faoliyat, interferensiya, inson omili, vaziyat omili, lisoniy qobiliyat, nutqiy akt tushunchasi.*

Ключевые слова: *лексическая единица, семантика, концепт блеклизма, язык, речевая деятельность, интерференция, человеческий фактор, ситуативный фактор, языковая способность, концепт речевого акта.*

Key words: *Lexical unit, semantics, concept of blingism, language, speech activity, interference, human factor, situational factor, linguistic ability, concept of speech act.*

Jamiyotimiz tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda o'z-o'zidn ilm-fanda ham yangiliklar, yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Ilm-fan va bir qancha sohalar boyicha muvoffaqiyatlarga erishish insondagi savodxonlikning qay darajada





rivojlanib borayotganligi hech kimga sir emas. Tilshunoslikda ham yangicha yongashuv asosida psixolingvistika fani fan sifatida maydonga keldi va shakllandi.

Psixolingvistika nutqiy faoliyatning nutq akti mazmuni bilan so'zlovchining maqsad-niyati o'rtasidagi aloqadorlik nuqtai nazaridan o'rganadigan fan. U nutqning idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. So'zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o'zi o'ylagan niyatini ma'lum qoidalar asosida aniq, tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, uning ifodalari, tashqi shakllari o'z aksini topadi.

Taniqli yozuvchi Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi Ramazon shazsining nutqini hikoyada keltirilgan misollar bilan tahlil qilamiz. Hikoya qahramoni Ramazon tabiatdan qishloqning soddadil, oqko'ngil, beozir, birovning dilini og'ritmaydigan, go'l, taytov, o'zining lakalov qiliqlari bilan kulguga qolib yuradigan shaxs obrazini gavdalantiradi. Uning nutqida harbiy xizmat safari Barnavulda, bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, ruscha so'zlarni qo'shoib, buzib gapirish holatlari ham uchraydi. Bunga misol tariqasida hikoyadagi nutqini keltiramiz. "E, sanlaga, zelin!" diya ustarani qo'lingizdan olib harbiychasiga saqol qirishni ko'rsatadi. Yana bir o'rinda :

-Bo'lmasa, yur, sening fozangga tusgamiz, jo'rajon, padrushka qilib... Nutqidagi zelen, padrushka, foza so'zlari uning ongiga xizmat qilgan vaqtlari singib ketgan. Blingvizm termini ikki tillilik ya'ni zullisonaynlik tushinchani anglatadi. Bunga Ramazonning yuqoridagi keltirilgan nutqi va hikoyada boshqa o'rinlarda ham qahramonlarning so'zlagan nutqlari jarayonida ham kuzatishimiz mumkin. Hikoyada bilet, malades, student, kupe, spravka, grajdan kabi ruscha so'zlarning keltirilishi bu qahramonlarning nutqida qanday bo'lsa, yozuvchi ham hikoyani konkret dalillash maqsadida shaxslar nutqini aynan o'zirikidek qilib tasvirlagan. Bu blingvizmning bir ko'rinishidir. Ikki tilda so'zlashish yoki boshqa tilda so'zlarni aralash holatida qo'llash.

Ramazonning do'stining oldiga shaharga kelishi ham qiziq. Har yili bir paytda - yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko'klam kunlari kelardi. Tentak shamol singari to'polon qolib kirib kelishi Ramazonning xarakter- xususiyatini daydi, tentak, to'polonchi shamollarga o'xshatilishida ham ma'no katta. Chunki uning fe'l-atvori xuddi shu daydi, tentak, to'polonchi shamollar kabi bir zumda, kutilmagan vaziyatda do'stini ko'rgani kelishi edi. Do'sti uni hech kutmagan va xushlamas ham edi. Ramazonga qarab shunday derdi:

- Nimaga kelding, Rasmazon? Baribir kirolmaysan-ku!
- Kirsam-chi? Deydi u yana chap ko'zini qisinqiraganicha tirjayib.
- Kirsam-chi?

-Kirolmaysan! Xudo ham, bandasiga ham ayon!

-Mayli, jo'rajon, buyam bir gap-da. Mana, sen o'qiyapsan-ku, bo'ladi-da menga shu. Ramazon nutqida sofdillik, ko'ngli keng insoniylik fazilatlarini borligini nutqidan bilishimiz mumkin. Do'stining "Kirolmaysan!, xudoga ham, bandasiga ham ayon" nutqini eshitib dili vayran ham bo'lmaydi. Chunki u chin do'st edi. Do'stini u juda





yaxshi ko'rar, unga atab har gal o'z bog'idagi jaydari olmalardan olib kelar edi. Do'stini gaplaridan dili vayron ham bo'lmay "Mana sen o'qiyapsan-ku, bo'ladi-da meng a shu" diya o'zini ovuntirib yupatgan kishi bo'ladi. U do'stini tinglaydi, tanqidlarini beparvolik bilan eshitadi va bu tanqidlarini to'g'ri qabul qiladi. Do'stiga nisbatan iliq munosabatda nutq so'zlaydi. Bu uning samimiy, soddaligidan dalolatdir. Ramazonning lakalov qiliqlari bor edi. Katta shahar o'rtasida hammani o'ziga qaratib shang'illagancha allanimalarnidir vaysab, gapirib ketar edi. U shu o'rinlardagi nutqi va lakalov qiliqlari, uning devonatabiatliligidan dalolatdir. Do'sti esa uning lakalov qiliqlarini ko'rib shaharga yarashmayapsan diya koyiyverardi. U esa parvo ham qilmaydi. Ramazonning lug'at boyligi ham o'zgacha, antiqa, hech kimnikiga o'xshamagan, noodatiy tarzda. Tamvayni "uch tiyinlik" deydi, taksini "pulyutar", restaranni- "registran" der edi. Ha, uning nutqi haqiqatdan ham o'zgach, antiqa hech kimning nutqiga o'xshamaydi. Kallasiga bir fikr kelib qoldimi hayya-hu deb boshi oqqan tomonga ketaveradi. Ayniqsa hizmat qilgan joyi Barnavulga ketib qolgisi kelaveradi. U soddaligi, mehribonligi, ishonuvchanligi uchun Barnavulga ketayotgan chog'ida poyezda aldanadi va qallob o'g'irilarga duch kelib, birovning xojatini chiqaraman deb qamaladi.

Sud jarayonida yolg'on fikrlash psixolingvistikasi ya'ni yolg'on ma'lumot berish narsa va hodisalarning haqiqiy holatini ataylab noto'g'ri, buzib tasvirlash nazarda tutiladi. Bu muamma psixolingvistika payda bo'lmasdan oldin ko'rsatma berish jarayonida haqiqat qaror topish uchun tortishib kelingan msalalardan biri bo'lib kelgan. Og'zaki va yozma yolg'on fikr ifodalash yuzasidan amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar psixolingvistikada mavjud. Mazkur tadqiqotda yolg'on xabarni planlashtirgan ayblanuvchining individual nutqida qo'llash chastotasi kam bo'lgan so'zlarni qiyinchiliklar bilan faollashtiradi. Ekspertiza tushunchasi ham, sud ekspertizasi va criminal ekspertizaga ajratilib o'rganiladi. Ekspertiza keng ma'noda jinoyatni ochish jarayonida (sudgacha va sud jarayonida) gumondor shaxsni, vaziyatni, jinoyat sodir etilganda foydalanilgan vositani topish gumon qilinayotgan shaxsning psixologik holatini aniqlash jarayonga taaluqli qo'shimcha ma'lumot olish maqsadida maxsus bilim va tajribaga ega mutaxassisning kriminal tekshiruv va h. k. ni tushunish mumkin.

Ramazonning sudi ham o'ziga o'xshadi-qip-qizil hangoma! Sudiya- ko'zaynak taqqan, o'rta yoshlardagi barvasta ayol-yigirma yil shu sohada ishlab, bunday antiqa sudni ham, bunaqa g'alati sudlanuvchini ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Tergov jarayonida sudyaning savollariga qandaydir jin chalganga o'xshash javoblar qaytaradi.

-Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug'ullanganmisiz?- deb so'raydi sudiya.

-Men, Haydarov Ramazon, 1950-yil Boysun rayonida tug'ilib edim. keyin...- deya tutulib qoladi.

-Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tug'ilgan yilingizni so'rayotgani yo'q. Oldin ham chayqovchilik qilganmisiz, deya pman?

-Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin bo'lsam...





-“Keyin, keyin”...-Sudyaning ensasi qotdi.-Hayda-arov! Bu gaplar hammasi mana - izingizda yozilgan. Siz bizga ayting: avval ham qilganmisiz shu ishni?

-Qanaqa ishni?

-Uf-fl! Chayqovchilik-da!

-Yo’-o’q... E, qilganman, qilganman.

-Iya, dastlabki tergovda “Chayqovchilik bilan shug’ullanmaganman”, degan ekansiz-ku?

-Shug’ullanmaganman- da o’zida.

-A, hozirgina nima dedingiz?

-Shug’ullanmaganman, desam ... ishonasizmi?

-Uf-F...Ayting-chi sherigingiz kim edi?

-Sherigim, sherigim... bilmayman... yo’q edi... Ramazon shu kabi sudyaning savollariga o’zini ataylab merovlikka solgan sirk masqaraboziga o’xshardi. Sochlari olingan, allanechuk kulgili tarzida qo’qqayib turardi. Sud jarayoni, suddagi bo’layotgan gaplarni unga dahli yo’qdek edi. U shunchalik soddaligidan bo’lsa kerak o’zining sudi bo’layotgani, hayoti endi qay holatda kechishini anglab ham yetmasdi. Sudyaning bergan savollaridagi bir o’ringadi nutqini tahlilga tortadigan bo’lsak, u shunday javob beradi.

-Uka, tushunsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoqchimiz. Yaxshilab o’ylab, to’g’risini ayting. Taqdiringiz hal bo’lyapti, axir!

-Opajon, bir marta kechiring!

-Men sizga “opajon” emasman!

-O’zingiz “uka” deyayapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

-Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun-grajdanin sudyaman!

-Men ham grajdanman.

-Uo’q, siz endi-ayblanuvchisiz, aybdorsiz!

-Men aybdorman?! Aybdorman, kechiring... Keltirilgan sud jarayonidagi misollardan Ramazonning ruhiyatidagi o’zgarishlar uning nutqiga ko’chganini guvohi bo’lamiz. Mana shu o’rinda inson omilining vaziyatdan kelib chiqqan xolatini ko’z oldimizga keltirishimiz mumkin bo’ladi. Turli vaziyatlardan vaziyat omilini va vaziyat omili esa inson ongiga hamda so’zlashayotgan nutq sohibiga ta’siri natijasi o’laroq inson omili degan tushunchaning maydonga kelishiga sabab bo’ladi. Bunday vaziyatlarning yuzaga kelishida shaxs til tizimidagini nutqida nomoyon bo’lishi, uning nutqini psixolingvistik tahlil qilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A. Pardayev. O’quv uslubiy qo’llanma.Samarqand-2021.

2.Леонтьев А.А. Основы психолингвистики : Учебник для студ. высш. учеб.заведенийю-М. Смысл, 1999-С.250.





3. Erkin A'zam " Aroyining jaydari olmasi" hikoyasi.
- 4.Кубрякова Е.С. номинативный аспект речевой диятельности-М.1986. С 91.
- 5.Глухов В.П. Основы психолннгвистики Учеб. Пособие.

